



XORIJIY MAMLAKATLARNING EKOLOGIYA SOHASIDA MAXSUS VAKOLATLI DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARI FAOLIYATINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH BORASIDAGI TAJRIBASINING QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI

Axrorov Adxamjon Asrorkul o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Huquqni sohalalararo o'rganish fakulteti

dekan o'rinbosari – Akademik departament boshlig'i, PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22105556>


Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish jarayonida mavjud muammolarni aniqlash va bartaraf etish, aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlarining ekologik qoida va talablarga qat'iy rioya qilgan holda rivojlanishiga erishishda xorijiy davlatlarda ilg'or ilmiy g'oyalar, amaliy mexanizmlar mavjud. Xorijiy davlatlarning ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvini tashkil etishning samarali mexanizmlarini o'rganish, tahlil etish va milliy qonunchiligimizga tatbiq etish juda ham muhimdir. Aksariyat huquqshunos olimlar milliy huquqiy tizimni takomillashtirishda qiyosiy huquqshunoslikning roli ortib borayotganligini ta'kidlashadi¹. Xususan, Kristofer Osakve Ma'muriy huquq sohasi uchun chet el huquqining ruxsat etilgan ta'sirini aniqlash va qonunchilikning bir xil sohalari va institutlarini mohirona taqqoslash muhim ekanligini, lekin uni tizimsiz ravishda o'rganish noto'g'ri qarorlarga olib kelishi mumkinligi, chunki "komporavistika" ilmiy-huquqiy bilimlarning kengayib borayotgan sohasi bo'lib, huquq tizimidagi nazariy va uslubiy fanni ham, amaliy huquqshunoslik metodologiyasini ham anglatishini ta'kidlaydi².

M. Redkousning qayd etishicha, "huquq metodologiyasi va metodikani o'rganish qiyosiy-huquqiy tahlilning asosiy instrumentlari sifatida katta ahamiyatga ega"³.

¹ Редкоус М. Теоретические основы использования сравнительно-правового метода и исследования административно-правового обеспечения национальной безопасности в государствах СНГ/Глобализация – безопасность государства – национальные интересы: доктрина права и правовая жизнь / Пузиков Р.В., Кштонь В., Голоскоков Л.В., Захаров А.В., Зеленьски Я., Зулфугарзаде Т.Э., Киселев А.С., Королев Е.С., Летута Т.В., Максименко Е.И., Парамонов А.В., Придворова М.Н., Редкоус В.М., Собчинский Т., Сычкова Е.М., Сычева Д.А. и др.: Монография/ Под. Общ.ред. Р.В. Пузикова, В. Фехлера. – Тамбов, 2020. С. 27-56; Редкоус В.М. Некоторые результаты сравнительного анализа Кодекса РФ об административных правонарушениях и Кодекса Азербайджанской Республики об административных проступках// Вестник ВИПК МВД России. 2020, № 4 (56). С. 80-87.

² Кристофер Осакве. Сравнительное правоведение в схемах: общая и особенная части. – М., 2000. – С. 18; Редкоус В.М. Рецензия на монографию А.М.Волкова «Реализация и защита публичных прав частных лиц в недропользовании» // Вестник РУДН. Сер.: Юрид науки. 2014. № 1. С. 286-287.

³ O'sha manba.





Bizning fikrimizcha, davlatda muayyan huquq sohasini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish, ularni qiyosiy tahlil qilish asosida mazkur huquq sohalarining istiqbollari belgilash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki har bir davlat o'ziga xos huquqiy tizimga ega bo'lib, ularni to'g'ridan to'g'ri milliy huquqiy tizimga tatbiq etib bo'lmaydi. Shu sababli xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilish, ularning ijobiy va salbiy jihatlari, aholining huquqiy ongini inobatga olgan holda milliy qonunchilikka joriy etish sohani rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Shunga ko'ra, ekologiya sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruv organlari tizimini optimallashtirish, ularning vazifa va funksiyalarini aniqlashtirish, sohani tartibga solish faoliyati samaradorligini oshirish, mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish hamda mamlakatda ekologik barqarorlikni ta'minlashda xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanish muhim ekanligini ta'kidlashimiz mumkin. Shu sababli quyida sohani tartibga soluvchi organlar faoliyatini takomillashtirish yuzasidan ba'zi xorijiy davlatlarning tajribasini tahlil qilib chiqamiz.


Xorijiy mamlakatlar tajribasi ekologiya sohasidagi davlat boshqaruv organlarining faoliyat yuritishining xususiyatlariga ko'ra Yevropa va MDH modellariga ajratish imkonini beradi.

Yevropa modelining o'ziga xos xususiyati shundaki, mazkur sohadagi barcha ijtimoiy munosabatlar yagona tashkiliy tuzilma tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu modelni G'arbiy Yevropa, AQSh, Qozog'iston kabi davlatlar tajribasida uchratishimiz mumkin.

Yevropa modelidan farqli ravishda MDH modelida sohani tartibga solish yagona tashkiliy tuzilma tomonidan emas, balki tarqoq holda bir nechta organ tomonidan tartibga solinadi. Ekologiya sohasidagi davlat boshqaruv organlarining MDH modeli Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, O'zbekiston, Tojikiston kabi davlatlarda qaror topgan.

Boshqaruvning Yevropa modeli amal qiladigan davlatlardan biri AQSh bo'lib, u yerda mazkur sohadagi davlat boshqaruvi 1970-yilda tashkil etilgan Atrof-muhitni muhofaza qilish agentligi (APA) tomonidan amalga oshiriladi.

Agentlik atrof-muhitni baholash, tadqiqot va ta'lim bilan shug'ullanadi. U davlat, shtat va mahalliy hukumat organlari bilan hamkorlikda turli xil atrof-muhit qonunlariga muvofiq milliy standartlarni saqlash va qo'llash uchun javobgar hisoblanadi. Agentlikning huquqni qo'llash bo'yicha vakolatlariga jarimalar, sanksiyalar va boshqa choralarni qo'llash kiradi.





Agentlik mustaqil federal ijro organi hisoblanib, uning rahbari prezident tomonidan tayinlanadi va Senat tomonidan tasdiqlanadi. Agentlikning asosiy funksiyalari suv resurslari, atmosfera havosi va yer, shuningdek, sayyoraning ozon qatlami yaxlitligi sifatini saqlash va yaxshilash hisoblanadi. Uning asosiy faoliyat turlari norma ijodkorligi, rejalashtirish, muvofiqlashtirish, metodik rahbarlik, kadrlarni o'qitish va tayyorlash, ilmiy tadqiqotlar, texnik yordam, monitoring, kontrol, davlat ekologik nazorati, moliyalashtirish hisoblanadi⁴.

Agentlik federal va shtatlarga ruxsat berish, nazorat qilish va ijro etish vakolatlarini beradi. Shuningdek, sanoat va hukumatning barcha darajalari bilan ifloslanishning oldini olish bo'yicha keng ko'lamli dasturlar va energiyani tejash bo'yicha ishlarni amalga oshiradi. Agentlik xodimlarining yarmidan ko'pini muhandislar, olimlar va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassislar tashkil qiladi. Qolgan xodimlar esa yuristlar, jamoatchilik bilan ishlash bo'yicha mutaxassislar, moliyaviy va axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassislardan tarkib topadi.

Agentlik tizimi quyidagi 5 tarkibiy tuzilmadan iborat: atmosfera havosi masalalari bo'yicha, suv resurslarini nazorat qilish, pestisidlardan foydalanish bo'yicha, zararli moddalar ustidan nazorat departamentlari hamda atrof-muhit va inson salomatligi sifatini yaxshilash bo'yicha bo'lim⁵.

Yevropa modeliga asoslangan Germaniyada ekologiya sohasida davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi yagona organ Atrof-muhit, tabiatni muhofaza qilish va yadroviy xavfsizlik va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish federal vazirligi hisoblanadi. Mazkur vazirlik 30 yildan ortiq vaqt davomida fuqarolarni ekologik jihatdan zaharli moddalar va radiatsiyadan himoya qilish, xomashyodan oqilona va tejamkor foydalanish, iqlimni muhofaza qilish, hayvon va o'simlik turlari hamda ularning yashash muhiti saqlanishini ta'minlaydi.

Vazirlik o'z vazifalarini bajarish uchun quyidagi vositalardan foydalanadi: asosiy vazifa tartibga soluvchi sohalarda huquqiy bazani shakllantirish uchun normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash hisoblanadi. Bunga Yevropa Ittifoqi normalarini milliy qonunchilikka tatbiq qilish ham kiradi. Vazirlik hukumat uchun Bundestag va Bundesrat tomonidan qabul qilinadigan qonun loyihalarini tayyorlaydi. Bundan tashqari, vazirlik qonun normalarini mustahkamlagan qonunosti hujjatlar chiqarilishini nazorat qiladi.

⁴ Браславский Л.И. Экология и охрана окружающей среды: законы и реалии США и России: моногр. – М.: Инфра-М, 2013. – С. 67-68.

⁵ Тюльпанов Ф. Сравнительно-правовой анализ систем органов управления исполнительной власти в области охраны окружающей среды США и Российской Федерации. Правопорядок: История, Теория, Практика, № 1 (2) 2014. С. 141-146.





Vazirlik ekologiya sohasini tartibga soluvchi barcha sohalariga oid qonun loyihalarda ishtirok etadi. Tadqiqot va ishlanmalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, innovatsion texnologiyalarni bozorga chiqarishni qo'llab-quvvatlaydi.

Qonunchilik bazasini takomillashtirishdan tashqari vazirlik ixtiyorida iqtisodiy vositalar ham mavjud. Moliyalashtirish dasturlari soliqlar hisobidan, shuningdek, emissiya savdosidan tushadigan daromaddan ham tuziladi. Fuqarolar, uyushmalar va tashkilotlar, tadbirkorlar yoki kommunalar muayyan loyihalar uchun moliyaviy yordam olishlari mumkin⁶.

Germaniyaning davlat tuzilishdan kelib chiqqan holda ekologiya sohasidagi davlat boshqaruv organlarining 2 bo'g'inli o'ziga xos tizimi shakllangan. Yuqori bo'g'inga Atrof-muhit, tabiatni muhofaza qilish va yadroviy xavfsizlik hamda iste'molchilar huquqlarini himoya qilish federal vazirligi boshchilik qilsa, federal ma'muriy birliklar hisoblanmish 16 ta yerning har birida mazkur sohada boshqaruvni amalga oshiruvchi alohida vazirliklari mavjud.

Ta'kidlash joizki, Germaniyada ekologik boshqaruvni amalga oshirish yerlarning asosiy vazifasi hisoblanadi. Federal darajada Atrof-muhit, tabiatni muhofaza qilish va yadroviy xavfsizlik va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish federal vazirligi asosan boshqaruv funksiyalari (rejalashtirish, ekologik siyosat aloqasi, qonun va me'yoriy hujjatlarni tayyorlash) bilan ta'minlangan va ijro etish funksiyasiga ega emas hamda atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini bevosita amalga oshirish uchun javobgar emas⁷. Ushbu vazirlikka quyidagilar bo'ysunadi: Federal ekologiya xizmati (birinchi navbatda, vazirlik ishini ilmiy ekspertiza bilan ta'minlash, ekologik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tayyorlashni bajaradi); Tabiatni muhofaza qilish federal xizmati (tabiat va landshaftni muhofaza qilishni amalga oshiradi); Radiatsiya ta'siridan himoya qilish federal xizmati (atom energiyasidan foydalanish sohasida boshqaruv funksiyalarini bajaradi, shuningdek, yadroviy materiallar va radioaktiv moddalar saqlanishi uchun javobgardir).

Bugungi kunda Farovonlik indeksida⁸ ekologik barqarorlik bo'yicha birinchi o'rinda turgan Daniyada ham ekologiya sohasida davlat boshqaruv organlarining faoliyat yuritishi Yevropa modeliga asoslangan.

Daniya ekologik siyosatining asosiy maqsadi atrof-muhitni muhofaza qilish hamda havo, suv va yerning ifloslanishining oldini olish, shuningdek, ifloslanish

⁶ Vazirlik: vazifalari va tuzilishi // Das Ministerium: Aufgaben und Struktur <https://www.bmu.de/ministerium/aufgaben-und-struktur>

⁷ Дубовик О.Л., Кремер Л., Любе-Вольф Г. Экологическое право: Учебник/Отв. ред. О.Л. Дубовик. – М.: Изд-во Эксмо, 2005. С. 635–638.

⁸ <https://www.prosperity.com/about/resources>





darajasini nazorat qilishdir. Daniya atrof-muhitni muhofaza qilish jamiyatining faoliyati quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

- muammoni hal qilish obyekti va vositalarini baholash;
- “ifloslantiruvchi” ekologik xarajatlarni to‘laydi.

Ishlab chiqilgan va olingan materiallar asosida mintaqaviy hokimiyat organlari atrof-dagi ifloslanish manbalari va ifloslanish maydonlarini xaritada aks ettiradi va atrof-muhit holati to‘g‘risida batafsil hisobot tayyorlaydi. Bu atrof-muhit sifatini yaxshilash, korxonalarining joylashishi va chiqindilarni yo‘q qilish bilan bog‘liq rejalarni ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, munitsipalitetlar tuman issiqlik ta‘minoti, chiqindi suv hajmi, suv ta‘minoti va suv oqimlaridan foydalanishni rejalashtiradilar va barcha ekologik tadbirlar ular asosida amalga oshirilishi kerak. Daniyada “atrof-muhit” vazifalari Atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi, mintaqaviy (tuman darajasida) va shahar hokimiyati tomonidan hal qilinadigan mustaqil faoliyat sohasiga aylangan. Ko‘rsatilgan ijro etuvchi hokimiyat organlarining oxirgi ikkitasi atrof-muhitni “kundalik” boshqarish uchun javobgardir.

Mamlakatning hududiy boshqaruv organlari (bundan buyon matnda mahalliy hokimiyat) mintaqaviy miqyosda faoliyatni rejalashtirish, monitoring qilish va rivojlantirish funksiyalarini, munitsipalitetlar esa shahar darajasida amalga oshiradilar. Masalan, mahalliy hokimiyat organlari suv ta‘minoti tizimlarida, ko‘llarda, suv oqimlarida suv sifatini saqlab qolish rejalarni va suv yig‘ish maydonidan foydalanish rejalarni ishlab chiqadilar.

Shahar hokimiyati ular hal qilishi kerak bo‘lgan ekologik muammolarga eng “yaqin” bo‘lib, ularning mahalliy kommuna haqidagi bilimlari atrof-muhitni moslashuvchan va sog‘lom boshqarishning muhim omili hisoblanadi. Daniyada atrof-muhitni muhofaza qilish xarajatlari mamlakat umumiy byudjetining taxminan 4 %ini tashkil qiladi, bu pulning asosiy qismi (90 %dan ortig‘i) shahar byudjetidan tushadi. Munitsipal xarajatlarning asosiy qismi turli xil oqova suvlarni tozalash inshootlarini qurish va foydalanishga sarflanadi⁹.

MDH modeliga asoslangan Xitoy Xalq Respublikasida ekologik muhofaza, ekologik boshqaruv bilan shug‘ullanuvchi 4 ta vazirlik mavjud bo‘lib, “Tashkiliy tuzilma to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq, ular quyidagilar:

- 1) XXR Tabiiy resurslar vazirligi;
- 2) XXR Ekologiya va atrof-muhit vazirligi;
- 3) XXR Suv xo‘jaligi vazirligi;

⁹ Гейт Н.А. Зарубежный опыт организации управления охраной окружающей среды. Право и современные государства. – 2012. – № 2.





4) XXR Qishloq xo'jaligi vazirligi.

Ushbu vazirliklarning barchasi XXR Davlat kengashi tarkibiga kiradi¹⁰.

XXR qonunchiligi tahlili mamlakatda ekologiya sohasida davlat boshqaruvining tarqoq modelini tashkil etishini ko'rsatadi. Mazkur yo'lining tanlanishi bir qator omillarga bog'liq. Xususan, mamlakat hududining kattaligi va aholi sonining ko'pligi davlat boshqaruvini yaxlit holda tashkil etish imkonini bermaydi. Shu sababli XXRda ekologiya sohasidagi davlat boshqaruv organlari faoliyati tarqoq holda amalga oshiriladi.

Ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvining MDH modeli tanlangan davlatlardan yana biri Rossiya Federatsiyasi hisoblanadi. Mazkur mamlakatda ham atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi davlat boshqaruv organlari vakolatlaridan kelib chiqib umumiy vakolatli, maxsus vakolatli hamda tabiatdan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishni boshqarish bo'yicha alohida funksiyalar va vazifalar yuklatilgan organlarga ajratiladi¹¹.

M. Brinchukning ta'kidlashicha, Rossiyadagi ekologik muammolar qatorida ushbu sohada maxsus vakolatli davlat boshqaruvi organlari tizimini tashkil etish eng dolzarb vazifalardan bo'lib qolmoqda. So'nggi yillarda ekologiya sohasidagi davlat boshqaruv organlari tizimi bir necha bor o'zgartirildi. Bu o'zgartirishlar uning faoliyatini takomillashtirishga qaratilmadi. Bunday organlar tizimini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar maqsadga muvofiqlik, atrof-muhitni oqilona boshqarish va tabiatni muhofaza qilish muammolarini izchil hal etishni ta'minlash g'oyalariga asoslanmasdan, eng avvalo, siyosiy mulohazalar asosida boshqarmalar manfaatlaridan kelib chiqqan holda qabul qilindi¹².

RFda atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi maxsus vakolatli davlat organlariga quyidagilar kiradi:

- 1) Federal vazirliklar;
- 2) Federal agentliklar;
- 3) Federal xizmatlar.


RF Prezidentining 2008-yil 12-maydagi "Federal ijro hokimiyati organlarining tizimi va tuzilishi masalalari to'g'risida"gi 724-son Farmoniga muvofiq, hozirgi vaqtda mazkur sohadagi maxsus vakolatli davlat organlar kiradi:

1. Gidrometeorologiya va atrof-muhit monitoringi federal xizmati, Tabiiy resurslardan foydalanish sohasida nazorat federal xizmati, Suv resurslari federal

¹⁰ https://cnlegal.ru/china_administrative_law/china_state_council_2023/

¹¹ Бринчук М.М. Экологические право (право окружающей среды). Учебник для высших юридических учебных заведений. – М.:Юрист, 1998. С 162.

¹² Бринчук М.М. Экологические право (право окружающей среды). Учебник для высших юридических учебных заведений. – М.:Юрист, 1998. С 166.





agentligi va yer resurslaridan foydalanish bo'yicha federal agentlikni o'z ichiga olgan RF Tabiiy resurslar va ekologiya vazirligi.

2. Veterinariya va fitosanitariya va nazorati bo'yicha federal xizmatni o'z ichiga olgan RF Qishloq xo'jaligi vazirligi.

3. Davlat ro'yxatidan o'tkazish, kadastr va kartografiya bo'yicha federal xizmat, Davlat mulkini boshqarish federal agentligini o'z ichiga olgan RF Iqtisodiy rivojlanish vazirligi.

4. RF Federal xavfsizlik xizmati.

5. Federal baliqchilik agentligi.

6. Atrof-muhit, texnologiya va atom nazorati bo'yicha federal xizmat.

7. O'rmon xo'jaligi federal agentligi¹³.

Amalga oshiriladigan funksiyalar va hal qilinishi kerak bo'lgan vazifalarga qarab maxsus vakolatli federal organlar quyidagicha tizimlashtirilgan:

1) tabiatni muhofaza qilish vazifalari blokini bajaradigan organlar: RF Tabiiy resurslar va ekologiya vazirligi, RF Sog'liqni saqlash va ijtimoiy rivojlanish vazirligi, Rossiya Gidrometeorologiya va atrof-muhit monitoringi federal xizmati, RF Fuqaro mudofaasi, favqulodda vaziyatlar va tabiiy ofatlarni bartaraf etish vazirligi,

2) ayrim tabiiy obyektlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish masalalarini qamrab oluvchi organlar: RF Qishloq xo'jaligi vazirligi, Federal baliqchilik agentligi va boshq.;

3) barcha tabiiy obyektlarga nisbatan bir yoki bir nechta tegishli funksiyalarni bajaradigan organlar: Federal davlat statistika xizmati, RF Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi, Federal bojxona xizmati va boshqalar.

RF hukumatining 2021-yil 30-iyundagi 1096-son qarori bilan tasdiqlangan Federal davlat ekologik nazorati to'g'risidagi nizom 4-bandiga muvofiq davlat ekologik nazorati Tabiiy resurslardan foydalanish sohasida nazorat federal xizmati (Rosprirodnadzor) tomonidan amalga oshiriladi.

Shuningdek, tahlillar Belarus Respublikasida ekologiya sohasidagi mavjud davlat boshqaruv organlari tizimi ham MDH modeliga asoslanganligini ko'rsatadi. Xususan, 1992-yil 26-noyabrdagi "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi Belarus Respublikasi qonuni 8-moddasiga muvofiq, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvi Belarus Respublikasi Prezidenti, Belarus Respublikasi Vazirlar Kengashi, Tabiiy resurslar va atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi va uning hududiy organlari, boshqa maxsus vakolatli respublika davlat

¹³ Управление природопользованием: учебное пособие/Под редакцией профессора С.М. Никонорова, доцента М.В.Палта. – М.: Экономический факультет МГУ имени М.В.Ломоносова. 2017. С. 47.





boshqaruv organlari va ularning hududiy organlari, mahalliy deputatlar vakillari, ijro etuvchi va boshqaruv organlari tomonidan o'z vakolatlari doirasida amalga oshiriladi.

Maxsus vakolatli respublika davlat boshqaruv organlariga Tabiiy resurslar va atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, O'rmon xo'jaligi vazirligi, Mulk bo'yicha davlat qo'mitasi kiradi.

MDH davlatlaridan farqli ravishda Qozog'iston Respublikasida bugungi kunda ekologiya sohasida Yevropa modeliga asoslangan davlat boshqaruvi tizimi yaratilgan. "Qozog'iston Respublikasi Ekologiya va tabiiy resurslar vazirligi to'g'risida"gi nizomga muvofiq, Qozog'iston Respublikasida ekologiya sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, meteorologik va geologik monitoring o'tkazish, "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish, chiqindilarni boshqarish (tibbiy, biologik va radioaktiv chiqindilar bundan mustasno) sohalarida boshqaruvni amalga oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash va nazorat qilish, suv fondidan foydalanish va himoya qilish, suv chiqarish, o'rmon xo'jaligi, hayvonot dunyosini muhofaza qilish, ko'paytirish va ulardan foydalanish, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, o'simlik dunyosini muhofaza qilish, tiklash va ulardan foydalanish, qozoq it zotlarini saqlash va ko'paytirish sohasidagi maxsus vakolatli davlat boshqaruv organi hisoblanadi.

Vazirlikda Ekologik tartibga solish va nazorat qo'mitasi; O'rmon xo'jaligi va hayvonot dunyosi qo'mitasi; Baliqchilik xo'jaligi qo'mitasi; Suv resurslari qo'mitasi¹⁴.

Qozog'iston Respublikasi Ekologiya kodeksining 27-moddasiga muvofiq, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi vakolatli organ atrof-muhitni muhofaza qilish, meteorologiya va gidrologik monitoring sohasida rahbarlik va tarmoqlararo muvofiqlashtirishni amalga oshiradigan markaziy ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanadi.

Mamlakatimizdagi hozirgi ekologik vaziyat kuchli, maxsus vakolatli davlat boshqaruv organining tizimini yaratish orqali ixcham davlat boshqaruvi organini tashkil etishni talab etmoqda. Chunki O'zbekistonda atrof-muhitni sog'lomlashtirish borasidagi bir qator tadbirlarga qaramasdan, ekologik munosabatlar hali ham tabiat va jamiyat uchun nomutanosib darajada saqlanishda davom etmoqda. Bu nomutanosiblikni, ekologik muammolarni, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni, insonlar uchun qulay tabiiy atrof-



muhitni vujudga keltirishda maxsus vakolatli davlat organlarining rolini, uning funksiyasini kuchaytirmasdan, takomillashtirmasdan bartaraf etish va hal qilish imkonsizdir.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlili MDH mamlakatlarida sohada ko'plab davlat boshqaruv organlari tizimiga ega ekanligidan dalolat beradi. Buni biz bevosita Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi kabi mamlakatlar qonunchiligida ham ko'rishimiz mumkin. Xuddi shunday holat O'zbekistonda ham mavjudligini yuqoridagi paragraflarimizda ko'rib chiqdik. Tadqiqot jarayonida o'tkazilgan so'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning 32,4 foizi respublikadagi mavjud ekologik muammolarning ortib borishiga asosiy sabab sifatida ekologiya sohasidagi davlat boshqaruv organlarining ko'pligi va vakolatlarning tarqoqligi ekanligini, shuningdek, 54,4 foizi O'zbekiston Respublikasidagi mavjud ekologik sohani tartibga solish tizimi to'g'ri yo'lga qo'yilmaganini ko'rsatishgan¹⁵.

Mamlakatimizda ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasida o'nga yaqin maxsus vakolatli davlat organlari faoliyat yuritmoqda. Tan olish kerakki, mazkur organlarni yaxlit holda tutib turuvchi tizim tashkil etilmagani sohadagi muammolarning samarali yechimlar bilan ta'minlanmayotganiga sabab bo'lmoqda.

Xorijiy davlatlar misolida ko'radigan bo'lsak, AQSh, Germaniya, Daniya kabi rivojlangan davlatlarda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish funksiyasi yagona organ tomonidan amalga oshirilmoqda. Bu esa organlar tarqoqligiga chek qo'yib, yagona tizim shakllantirilishini ta'minlaydi. Mazkur tizimning samarali faoliyati natijasida ushbu mamlakatlar doimiy ravishda ekologik barqarorlik bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlarda qayd etilmoqda.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti kengashining Tartibga solish siyosati va davlat boshqaruvi bo'yicha tavsiyalarida davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish bo'yicha 12 ta holat nazarda tutilgan. Shulardan biri barcha darajadagi davlat boshqaruvi tizimida turdosh tartibga solish masalalarini aniqlash orqali takrorlanish va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslikdir. Shuningdek, muayyan sohada davlat boshqaruvini yagona davlat organiga yuklash orqali mazkur sohani kompleks rivojlantirish, yaxlit pozitsiya va tizimli yondashuvni shakllantirish, turdosh va o'zaro bog'liq tarmoqlarni rivojlantirish muhim ekanligi belgilangan¹⁶.

¹⁵ So'rovnoma natijalari dissertatsiyaning Ilovalar qismida keltirilgan.

¹⁶ Ma'muriy islohotlarni yoritishda professional yondashuv zarur // <https://adliya.uz/uzb/posts/ma%CA%BCmuriy-fohotlarni-yoritishda-professional-yond>





Ta'kidlash joizki, davlat boshqaruv organlari sonining ko'payishi hamda mazkur organlar vazifalarining bir-biri bilan tutashishi sohani tartibga solish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatimizda sohadagi davlat boshqaruvini amalga oshiruvchi bir nechta maxsus vakolatli organlar faoliyat yuritishiga qaramasdan, Farovonlik indeksi¹⁷ natijalariga ko'ra, O'zbekiston ekologik vaziyatning holati bo'yicha dunyoda eng so'nggi o'rinlarda qayd etilganligi ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Shu sababli ushbu davlat boshqaruv organlari tizimini ixchamlashtirish, vazifalar taqsimotini qayta ko'rib chiqish orqali o'zaro takrorlanuvchi funksiyalarni bekor qilish sohadagi davlat boshqaruv tizimining ta'sirchan mexanizmini yaratishga zamin yaratadi.

Bizning fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasida ham bosqichma-bosqich Yevropa modeliga asoslangan holda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida faoliyat yuritayotgan mavjud barcha organlar vakolatlarini qayta ko'rib chiqish asnosida ular tizimini optimallashtirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Редкоус М. Теоретические основы использования сравнительно-правового метода и исследования административно-правового обеспечения национальной безопасности в государствах СНГ/Глобализация – безопасность государства – национальные интересы: доктрина права и правовая жизнь / Пузиков Р.В., Кштонь В., Голоскоков Л.В., Захаров А.В., Зеленски Я., Зульфугарзаде Т.Э., Киселев А.С., Королев Е.С., Летута Т.В., Максименко Е.И., Парамонов А.В., Придворова М.Н., Редкоус В.М., Собчинский Т., Сынова Е.М., Сычева Д.А. и др.: Монография/ Под. Общ.ред. Р.В. Пузикова, В. Фехлера. – Тамбов, 2020. С. 27-56; Редкоус В.М. Некоторые результаты сравнительного анализа Кодекса РФ об административных правонарушениях и Кодекса Азербайджанской Республики об административных проступках// Вестник ВИПК МВД России. 2020, № 4 (56). С. 80-87.
2. Кристофер Осакве. Сравнительное правоведение в схемах: общая и особенная части. – М., 2000. – С. 18; Редкоус В.М. Рецензия на монографию А.М.Волкова «Реализация и защита публичных прав частных лиц в недропользовании» // Вестник РУДН. Сер.: Юрид науки. 2014. № 1. С. 286-287.
3. Браславский Л.И. Экология и охрана окружающей среды: законы и реалии США и России: моногр. – М.: Инфра-М, 2013. – С. 67-68.



4. Тюльпанов Ф. Сравнительно-правовой анализ систем органов управления исполнительной власти в области охраны окружающей среды США и Российской Федерации. Правопорядок: История, Теория, Практика, № 1 (2) 2014. С. 141-146.
5. Vazirlik: vazifalari va tuzilishi // Das Ministerium: Aufgaben und Struktur <https://www.bmu.de/ministerium/aufgaben-und-struktur>
6. Дубовик О.Л., Кремер Л., Любе-Вольф Г. Экологическое право: Учебник/Отв. ред. О.Л. Дубовик. – М.: Изд-во Эксмо, 2005. С. 635–638.
7. <https://www.prosperity.com/about/resources>
8. Гейт Н.А. Зарубежный опыт организации управления охраной окружающей среды. Право и современные государства. – 2012. – № 2.
9. https://cnlegal.ru/china_administrative_law/china_state_council_2023/
10. Бринчук М.М. Экологическое право (право окружающей среды). Учебник для высших юридических учебных заведений. – М.:Юристъ, 1998. С. 162.
11. Управление природопользованием: учебное пособие/Под редакцией профессора С.М. Никонорова, доцента М.В.Палта. – М.: Экономический факультет МГУ имени М.В.Ломоносова, 2017. С. 47.
12. <https://www.gov.kz/memleket/entities/ecogeo/about/structure/1/1?lang=ru>
13. Ma'muriy islohotlarni yoritishda professional yondashuv zarur // <https://adliya.uz/uzb/posts/ma%CA%BCmuriy-islohotlarni-yoritishda-professional-yond>
14. <https://www.prosperity.com/about/resources>

